

2016-2024 YILLARDA SAMARQAND VILOYATIDA DAVLAT UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMINING RIVOJLANISHI

*Mirzayeva Baxti Xamzayevna,
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
Tarix yo'nalishi 2 kurs magistranti
Email: baxtimirzayeva1987@mail.ru
Тел: +998994055026*

Annotatsiya

Mazkur maqola 2016-2024 yillarda Samarqand viloyatida umumiy o'rta ta'lim tizimining rivojlanish tendensiyalari, amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijalarini yoritishga bag'ishlangan. Ushbu davr mobaynida viloyatda ta'lim sifatini oshirish, moddiy-texnik bazani mustahkamlash, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda yangi maktablar qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish borasida katta ishlar amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: Samarqand viloyati, umumiy o'rta ta'lim, ta'lim tizimi, islohotlar, moddiy-texnik baza, zamonaviy texnologiyalar, malaka oshirish, o'quv jarayoni

РАЗВИТИЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СИСТЕМЫ ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ В 2016-2024 ГОДАХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются тенденции развития системы общего среднего образования Самаркандской области в 2016-2024 годах, проводимые реформы и их результаты. За этот период в регионе проделана большая работа по повышению качества образования, укреплению материально-технической базы, внедрению современных педагогических технологий, строительству новых и реконструкции действующих школ.

Ключевые слова: Самаркандская область, общее среднее образование, система образования, реформы, материально-техническая база, современные технологии, повышение квалификации, учебный процесс

Development of the state general secondary education system in Samarkand region in 2016-2024

Abstract

This article is devoted to highlighting the development trends of the general secondary education system in the Samarkand region in 2016-2024, the reforms implemented, and their results. During this period, great work has been carried out in the region to improve the quality of education, strengthen the material and technical

base, introduce modern pedagogical technologies, and build new schools and reconstruct existing ones.

Keywords: Samarkand region, general secondary education, education system, reforms, material and technical base, modern technologies, advanced training, educational process.

Kirish. O'zbekistonning mustaqillikka erishgach xalq ta'limi tizimi taraqqiyotida ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Davlat umumiy o'rta ta'lim tizimi tarixiy rivojlanishini quyidagi bosqichlarga bo'lib o'rganish mumkin: 1. 1991-2000 yillar. 2. 2001-2015 yillar. 3. 2016-2024 yillar.

1992-yil 2-iyulda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" qonun o'z vaqtida muhim bo'lgan bo'lsa-da, ammo ta'lim tizimini isloh qilishning amaliy chora-tadbirlari, ta'lim tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksizlikni ta'minlash muammolarini yecha olmadi. Ta'lim tizimidagi yig'ilib qolgan muammolar 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi yangi qonunni va kadrlar tayyorlash milliy dasturining yaratilishiga sabab bo'ldi.

Asosiy qism. Mustaqillikning dastlabki yillarida, jumladan 1994 yilda Samarqand shahrida 141 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 69 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari qurilib, undagi o'quvchilar soni 67762,0 mingni tashkil etdi. 2009 yilga keyelib shaharda maktabgacha ta'lim muassasalari soni 106 taga kamaygan, maktablar soni esa 71 taga va undagi o'quvchilar soni 59760,0 mingga (bu davrda umumta'lim maktablari 9 yillik bo'lgan) ko'paygan[1]. 2019 yilda Samarqand shahridagi maktablar soni 80 taga yetdi. Shahardagi umumta'lim maktablar sonining ko'payishi esa shahar hududining kengayishi, qo'ni qishloqlarning shahar hududiga kiritilishi hisobiga sodir bo'lgan. 2017 yilda Samarqand shahrida maktabgacha ta'lim muassasalarining soni 108 tani, o'rta-maxsus hamda kasb-hunar ta'lim muassasalari soni esa 28 tani tashkil etdi [2].

2020-yil 23-sentyabr kuni "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahririga muvofiq ta'lim turlari quyidagilardan iborat: 1) Maktabgacha ta'lim va tarbiya. 2) Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim. 3) Professional ta'lim. 4) Oliy ta'lim. 5) Oliy ta'limdan keying talim. 6) Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish. 7) Maktabdan tashqari ta'lim:

Umumiy o'rta ta'limning muddati 11 yil bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimining majburiy mustaqil turi hisoblanadi. Umumiy o'rta ta'lim umumta'lim, muassasalarida uzluksiz tarzda majburiy bo'lgan o'n bir yil davomida amalga oshiriladi. Umumiy o'rta ta'lim uch bosqichdan iborat bo'lib, kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi: 1-bosqich I-IV sinflar (boshlang'ich ta'lim); 2-bosqich I-IX sinflar (tayanch o'rta ta'lim);

3-bosqich X-XI sinflar (o'rta ta'lim). Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim mazkur 3 ta bosqichda olib boriladi.

Umumta'lim muassasalarining esa quyidagi turlari mavjud: boshlang'ich maktab, umumiy o'rta ta'lim maktabi, ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab, ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internat, ijod maktabi, Prezident maktabi, olimpiya va milliy sport turlari bo'yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab-internati, jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internat, psixik (intellektual) rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan (yordamchi) maktab, maktab-internat, sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internat, respublika ixtisoslashtirilgan o'quv-ta'lim muassasasi.

Samarqand viloyatida faoliyat yuritayotgan umumta'lim muassasalari soni 2018-2021 yillar davomida yillar kesimida quyidagicha bo'lgan: 2018 yilda 1220 ta, 2019 yilda 1225 ta, 2020 yilda 1260 ta, 2021 yilda 1285 ta. 2021/2022 o'quv yili boshiga 1285 tani tashkil etib, 2018- yilga nisbatan 65 taga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Tumanlar ichida maktablar soni bo'yicha Urgut, Pastdarg'om, Payariq, Kattaqo'rg'on tumanlari va Samarqand shahri oldingi o'rinlarda turgan. Viloyat bo'yicha umumta'lim muassasalari sonining yuqoriligi bo'yicha Pastdarg'om va Urgut tumanlari alohida o'ringa ega bo'lib, eng oxirgi o'rinda Paxtachi tumani turgan [3]. Bu aholi soni va zichligi bilan bog'liq bo'lgan.

Nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan ta'lim faoliyati davlat ta'lim standartlari va davlat talablariga muvofiq amalga oshiriladi. So'nggi yillarda ta'limning ushbu turiga qaratilayotgan e'tibor sababli nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Birgina 2021-yilning o'zida faoliyat yuritayotgan nodavlat umumta'lim tashkilotlari soni 13 taga ko'paygan, ushbu raqamlarni 2018-yilga nisbatan taqqoslansa 6 taga ortganini kuzatish mumkin. Ya'ni 2018 yilda 7 ta, 2019 yilda 10 ta, 2020 yilda 9 ta, 2021 yilda 13 ta edi. Nodavlat umumta'lim tashkilotlari sonining, boshqa hududlarga nisbatan yuqoriligi bo'yicha Samarqand shahri, Ishtixon, Kattaqo'rg'on shahar va Payariq tumanlari alohida o'ringa ega [3]. Qolgan tumanlarda esa nodavlat ta'lim muassasalari mavjud emas edi.

Viloyatda umumta'lim maktablari o'quvchilari soni yildan-yilga oshib borishi kuzatildi. Jumladan, umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni 2016-yilga nisbatan taqqoslaganda 184,8 ming nafarga ko'paygani yoki 24,7 % ga oshgani kuzatildi. 2021-2022 o'quv yilida o'quvchilarning soni bo'yicha Urgut tumani 1-o'rinda, Kattaqo'rg'on shahri esa oxirgi o'rinda turgan. 2023-2024 o'quv yilida esa viloyatda jami 1266 ta maktab bo'lib, ulardagi o'quvchilar soni 776606 nafar, sinflar soni esa 31280 tani tashkil etgan [4]. Respublika bo'yicha esa jami o'quvchilar soni 6476091 nafar bo'lib, o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand viloyati (776606 nafar) va Farg'ona viloyati (685359 nafar), eng past ko'rsatkich esa Sirdaryo (156191) va Navoiy (187656 nafar) viloyatlariga to'g'ri kelgan. Jami

o'quvchilarning 3298490 nafarini o'g'il bolalar, 3177601 nafarini esa qiz bolalar tashkil etgan [4].

2023-2024 o'quv yilida respublikada ham Samarqand viloyati maktablar soni yuqoriligi bo'yicha birinchi o'rinda, Qashqadaryo viloyati esa ikkinchi o'rinda turgan. Respublikada maktablar soni bo'yicha eng past ko'rsatkich Sirdaryo viloyatiga to'g'ri kelib, 156191 nafar o'quvchi va 6770 ta sinf mavjud bo'lgan. Maktablar soni respublika bo'yicha hududlar kesimida quyidagicha bo'lgan: Qoraqalpog'iston Respublikasi 722 ta, Andijon viloyati 765 ta, Buxoro viloyati 534 ta, Jizzax viloyati 558 ta, Qashqadaryo viloyati 1225 ta, Navoiy viloyati 366 ta, Namangan viloyati 716 ta, Samarqand viloyati 1266 ta, Surxondaryo viloyati 960 ta, Sirdaryo viloyati 314 ta, Toshkent viloyati 888 ta, Farg'ona viloyati 964 ta, Xorazm viloyati 544 ta va Toshkent shahri 341 ta.

2023-2024-o'quv yilida jami maktablar soni 10163 ta bo'lib, shulardan shahar hududidagi maktablar 1440 ta, tuman markazi hududidagi maktablar 981 ta, qishloq hududidagi maktablar 7128 ta va olis hududlarda joylashgan maktablar soni esa 614 tani tashkil etgan [4]. Raqamlardan ko'rinib turganidek, respublikadagi maktablarning katta qismi (3/2 qismidan ko'pi) qishloq hududlariga to'g'ri kelgan. Qishloq hududidagi maktablarning soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand viloyatida (1022 ta), eng past ko'rsatkich esa Navoiy viloyatiga (195 ta) to'g'ri kelgan. Olis hududlarda joylashgan maktablar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich esa Qashqadaryo viloyati (183 ta), eng past ko'rsatkich Xorazm (10 ta), Sirdaryo (11 ta) va Namangan (11 ta) viloyatlariga to'g'ri kelib, Andijon viloyati bo'yicha esa umuman mavjud emas edi.

O'zbekistonda so'nggi 5-yilda maktablar soni 6,5 foizga oshib 10 750 tani tashkil etdi, deyiladi Statistika agentligi e'lon qilgan ma'lumotlarda. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari eng ko'pi Samarqand viloyatida joylashgan – 1323 ta maktab.

Lekin yangi qurilayotgan maktablar soni bo'yicha birinchi o'rinda – Toshkent, o'sish 20,8 foizni tashkil etgan. Eng kam o'sish esa Toshkent viloyatida kuzatildi – 5-yil ichida maktablar soni 2,8 foizga oshdi xolos. 2023/2024 o'quv yilida respublikada 547,8 ming nafar o'qituvchi faoliyat yuritmoqda, bu 2019/2020 o'quv yiliga nisbatan 12,6 foizga ko'p. Samarqand viloyatida maktablar soni bilan bir qatorda o'qituvchilar ham ko'p–62,4 ming kishi. Eng kam o'qituvchilar Sirdaryo viloyatida – 13,6 ming kishi [5].

2016-2021-yillarda nodavlat oliy ta'lim muassasalarining ham o'quvchilari soni ortib borganini kuzatish mumkin. Jumladan, 2016 yilda 173 nafar, 2017 yilda 331 nafar, 2018 yilda 744 nafar, 2019 yilda 1052 nafar, 2020 yilda 1310 nafar va 2021 yilda 1951 nafar. 2021-yilda nodavlat umumta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni 2016-yilga nisbatan taqqoslaganda 11 barobardan ko'p, 1778 nafar o'quvchiga ko'paygan. Mazkur yillarda nodavlat tashkilotlari Urgut, Toyloq, Paxtachi,

Pastdarg'om, Nurobod, Narpay, Qo'shrabod, Kattaqo'g'on (Kattaqo'rg'on shahridan tashqari), Jomboy, Bulung'ur, Oqdaryo tumanlari va tuman markazlarida mavjud bo'lmagan. Eng ko'p nodavlat tashkilot o'uvchilari Samarqand shahrida, eng kami esa Samarqand tumanida bo'lib, boshqa hududdagi o'quvchilar sonidan qariyb 2 barobarga yaqin ko'proq bo'lgan [3].

Viloyatda 2021-2022 o'quv yilida o'quvchilarning gender bo'yicha taqsimotida o'g'il bolalar qiz bolalarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan. Jumladan, umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan jami o'quvchilar 100 % deb hisoblansa, shundan 49,0 % ini qiz bolalar (365,1 ming nafar), 51,0 % ni o'g'il bolalar (380,6 ming nafar) tashkil etgan.

Hududlar kesimida o'quvchilarning gender bo'yicha taqsimlanishi 2021-2022 o'quv yilida Urgut tumani birinchi (qiz bolalar 52,1 foiz, o'g'il bolalar 55,0 foiz), Paxtachi tumani va Kattaqo'rg'on shahri esa oxirgi o'rinda turgan. Samarqand shahri, Pastdarg'om, Ishtixon, Kattaqo'rg'on va Payariq tumanlari ham oldingi o'rinlarda turgan. Hududlar ichida faqat Paxtachi tumanida gender taqsimotda qiz bolalar o'g'il bolalarga nisbatan ko'pchilikni tashkil etgan.

2023-2024 o'quv yilida esa viloyatdagi jami 776606 nafar o'quvchilarning 396120 nafarini o'g'il bolalar, 380486 nafarini esa qiz bolalar tashkil etgan. O'quvchilar soni bo'yicha ikkinchi o'rinda turgan Farg'ona viloyatidagi jami 685359 nafar o'quvchilarning 343655 nafarini qiz bolalar, 341704 nafarini o'g'il bolalar tashkil etib, o'quvchilar soni eng past ko'rsatkichli Sirdaryo viloyatidagi 156191 nafar o'quvchining 79792 nafarini o'g'il bolalar va 76399 nafarini esa qiz bolalar tashkil etgan. Ya'ni, respublika bo'yicha jami 6476091 nafar o'quvchining 3177601 nafarini qiz bolalar, 3298490 nafarini esa o'g'il bolalar tashkil etishi o'g'ili bola o'quvchilar soni qiz bola o'quvchilar soniga nisbatan ko'pchilikni tashkil etganligini ko'rsatadi [6].

Umumta'lim muassasalarida 2021/2022 o'quv yili boshida jami 57,3 ming nafar o'qituvchilar (o'rindoshlarsiz) faoliyat yuritib, ushbu ko'rsatkichni 2016- yilga nisbatan taqqoslaganda (2016-yil 46,3 ming nafar) 19,2 % ga oshgani kuzatildi. O'qituvchilarning 67,7 % i qishloq maktablarida, 32,2 % i shahar maktablarida faoliyat yuritgan. Ya'ni qishloq maktablaridagi o'qituvchilar soni shahardagiga nisbatan 2 barobardan ko'proqni tashkil etgan. Hududlar kesimida taqqoslaganda esa o'z navbatida o'quvchilar soniga mutanosib ravishda Urgut tumani (6,6 ming) va Samarqand shahri (6,3 ming) eng yuqori ko'rsatkichni, Paxtachi tumani (2,2 ming) va Kattaqo'rg'on shahri (1,0 ming) esa eng past ko'rsatkichni egallagan [3].

1991 yildan keyin mamlakatimiz bo'yicha umumta'lim muassasalarida o'qituvchilar sonining gender taqsimotida asta-sekin erkak o'qituvchilar kamayib, ayol o'qituvchilar ortib borishi kuzatildi. 2021-2022 o'quv yilida viloyat bo'yicha erkak o'qituvchilar 38,7 foizni, ayol o'qituvchilar esa 61,3 foizni tashkil etgan [3].

Viloyat hududlari kesimida erkak o'qituvchilar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Qo'shrabod (63,9 %) va Urgut tumanlarida (53,0 %), eng past ko'rsatkich esa Samarqand tumani (24,6 %) va Samarqand shahrida (21,3 %), ayol o'qituvchilar bo'yicha esa teskari ravishda eng yuqori ko'rsatkich Samarqand shahri (78,7 %) va Samarqand tumaniga (75,4 %), eng past ko'rsatkich esa Urgut (47%) va Qo'shrabod (36,1%) tumanlariga to'g'ri kelgan.

Mamlakatimizda umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim olish quyidagi yettita tilda olib boriladi: o'zbek, qoraqalpoq, rus, tojik, qozoq, qirg'iz va turkman tillarida[4].

Samarqand viloyatida o'zbek, tojik va rus tillarida ta'lim beruvchi maktablar mavjud bo'lib, hududlar kesimida tahlil qilinganda o'zbek tilida ta'lim beruvchi maktablar hamma tumanlarda, tojik tilida ta'lim beruvchi maktablar Samarqand shahri, Nurobod, Pstdarg'om, Samarqand, Toyloq va Urgut tumanlarida, rus tilida ta'lim beruvchi maktablar esa Qo'shrabod tumanidan tashqari hamma tumanda mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2021-2022-ўқув йилида вилоятда hududlar kesimida umumta'lim muassasalarida o'qitilayotgan tillar bo'yicha o'quvchilar soni o'zbek tilida 680536 nafar, tojik tilida 8684 nafar va rus tilida 56485 nafarni tashkil etgan. Rus tilida ta'lim beruvchi umumta'lim muassasalari viloyatning Qo'shrabod tumanidan boshqa barcha hududlarida mavjud bo'lgan.

Samarqand viloyat hokimining 2021 yil 25 iyundagi qarori bilan viloyatda 18 ta xorijiy tillarga ixtisoslashtirilib o'qitiladigan davlat umumiy o'rta ta'lim maktablari tashkil etildi. 2021 yilda viloyatda xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktablari 25 ta bo'lib, ularning 19 tasi to'liq xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan. Jumladan, 11 tasi ingliz tiliga (Qo'shrabod tuman 82, Urgut tuman 11, Bulung'ur tuman 5, Nurobod tuman 3, Narpay tuman 23, Toyloq tuman 26, Paxtachi tuman 18, Jomboy tuman 7, Samarqand tuman 21, Pstdarg'om tuman 54, Kattaqo'rg'on shahar 16-umumta'lim maktablari) ixtisoslashtirildi [7].

Viloyatda boshqa fanlar bilan birgalikda ingliz tiliga chuqurlashtirilib o'qitiladigan 6 ta maktab mavjud. Shundan matematika va ingliz tili fanlari chuqurlashtirilib o'qitiladigan 2 ta (Kattaqo'rg'on tuman 1-IDUM, Urgut tuman 136-IDUM), matematika, ona tili va ingliz tili fanlari chuqurlashtirib o'qitiladigan 3 ta (Jomboy tuman 40-IDUM, Ishtixon tuman 2-IDUM, Pstdarg'om tuman 28-IDUM), ingliz tili va tarix fanlari chuqurlashtirib o'qitiladigan 1 ta (Samarqand tumani 2-IDUM) maktab tashkil etilgan [8].

Xulosa va takliflar. 1991-2000 yillar: O'zbek tilidagi ta'limning kengayishi; Yangi o'quv dasturlari va darsliklarning joriy etilishi; Moddiy-texnik bazaning yetishmasligi muammolari. 2001-2015 yillar: 9 yillik majburiy ta'limdan 12 yillik tizimga o'tish; Maktablarning kompyuterlashtirish dasturi; Sport inshootlari va laboratoriyalarning yangilanishi. 2016-2024 yillar: Prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi; Zamonaviy ta'lim standartlarining joriy etilishi; Xususiy

maktablar tarmog'ining kengayishi; Raqamli ta'lim infratuzilmasining rivojlanishi. 2016-2024 yillarda respublikani qolgan hududlarida bo'lgani singari Samarqand viloyatida ham davlat umumta'lim muassasalari bilan bir qatorda nodavlat ta'lim muassasalari vujudga kelib, ularning miqdori, ulardagi o'quvchilar va o'qituvchilar soni ortib borishi kuzatildi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси давлат статистика бошқармаси. Показатели социально-экономического развития города Самарканда. Тошкент, 1991-2014. йил.
2. Самарқанд вилоят статистика бошқармаси; Самарқанд шаҳар паспорт маълумотлари. Самарқанд, 2017. 15 б.
3. Самарқанд viloyatida umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy statistik ko'rsatkichlari. Samarqand viloyat statistika boshqarmasi. Samarqand, 2021 y.
4. www.uzedu.uz/uz/page/statistics
5. So'nggi 5-yilda maktablar soni qancha oshdi - Sputnik O'zbekiston, 04.04.2024
6. Samarqand viloyatida umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatining asosiy statistik ko'rsatkichlari. Samarqand viloyat statistika boshqarmasi. Samarqand, 2024y.
7. www.samuzedu.uz
8. www.zarnews.uz